

Jarayon

Korrupsiyaga qarshi kurash – ustuvor vazifamiz

Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotini sekinlashtiradigan, adolat, tenglik va halollik tamoyillarini yemiradigan xavfli illat. U insonlar orasidagi ishonchni yo'qotadi, huquqiy islohotlarni zaiflashtiradi va davlat boshqaruvi tizimiga putur yetkazadi. Shu bois, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish har bir tashkilot, har bir fuqaroning muhim vazifasiga aylangan. Xususan, Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida 2024-yil va 2025-yilning birinchi choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi va qator chora-tadbirlar belgilandi, institut tuzilmasi qayta tashkil etildi.

Malaka oshirish tizimida shaffoflik, ochiqlik, oshkorlikni ta'minlash va turli korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo'limi o'z faoliyatini boshladi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tegishli buyrug'i asosida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash metodikasi va nizolarni boshqarish to'g'risida 16 ta ichki hujjat tasdiqlanib, amaliyotga joriy etildi.

Institut rahbariyati barcha tarkibiy bo'linmalar jamoasi, rahbarlari va xodimlarini amaldagi qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlarga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan kasb etikasi qoidalariga qat'iy rioya qilishda namuna bo'lishga safarbar etdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 25 ta targ'ibot-tashviqot tadbirlarini o'tkazish asosida xodimlarning va institut tinglovchilarining huquqiy bilimlari oshirildi. Shuningdek, mazkur davrda bo'lim xodimlari tomonidan bo'lim boshliqlari, kafedra professor-o'qituvchilari va institutning boshqa mas'ul xodimlari bilan 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyati bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish bo'yicha 2024-2025-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" asosida institut xodimlari o'rtasida o'z vazifalarini halol va vijdonan bajarish bo'yicha tegishli targ'ibot ishlari ham yo'lga qo'yilgan. Institutga ishga qabul qilish esa ochiq tanlov asosida tanlov komissiyasi bilan suhbatlashish orqali bo'lib, Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo'limi xodimlari ishga qabul qilinayotgan barcha xodimlar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazadi. Ish beruvchi va xodim o'rtasida tuziladigan mehnat shartnomasiga xodimlarga o'z xizmat vazifalarini bajarishda korrupsiyaviy harakatlarda ishtirok etmaslik sharti majburiyat sifatida kiritilgan. Qolaversa, institutning

barcha xaridlari "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq xarid.uzex.uz platformasi orqali amalga oshiriladi.

Menejerlik, malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslari, magistratura va doktoranturaga qabul qilish jarayonlarini raqamlashtirish, shuningdek, o'qish, baholash va suhbat davrida barcha imtihon sinovlari va monitoringini o'tkazish orqali inson omilini minimallashtirishga erishildi.

Ta'kidlash joizki, institutda ochiqlikni ta'minlash maqsadida o'tkazilayotgan tadbirlar, shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar, hisobotlar va axborotlar muntazam ravishda rasmiy veb-saytda, internetdagi boshqa sahifalar, jurnalistlar va blogerlar ishtirokidagi tadbirlarda e'lon qilinmoqda. Korrupsiya holatlari to'g'risida xabardor qilish uchun barcha turdagi aloqa kanallarining ("Ishonch telefoni", elektron pochta manzillari, rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa sahifalar) uzluksiz ishlashi yo'lga qo'yilgan. Masalan, hisobot davrida institutga korrupsiya bilan bog'liq 13 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ular o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilgan. Natijalar bo'yicha ikkita xizmat tekshiruvi o'tkazildi va materiallar prokuratura organlariga yuborildi.

Bir so'z bilan aytganda, institut faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish, qonuniylik, shaffoflikni ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rilmogda. Korrupsiya xavfini va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va jamoatchilikning korrupsiyaga qarshi kurashish institutining tamoyillari va talablari to'g'risida xabardorligini oshirish maqsadida ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar institutning avloniy.uz sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida berib borilmoqda.

Shavkat HAMROYEV,
Korrupsiyaga qarshi kurashish
va huquqiy nazorat bo'limi boshlig'i

Tuyg'u

So'nggi qo'ng'iroq

So'nggi qo'ng'iroq... To'rt yil muqaddam ilk bor qo'llariga qalam tutqazib savodini chiqargan jaji bolajonlarim bugun bag'rimdan ketib, o'zga ustozning qo'llaridan tutishga chog'lanmoqda.

O'ttiz qorako'zimning har birining ovozi, kulgulari, yurish-turishlari, sho'xliklari dilimdan joy olgan. To'polonchilarimning hammasini yaxshi ko'rib qolganman. Ularni bir kun ko'rmasam turolmayman, darrov sog'inib qolaman. Hademay o'quvchilarim yozgi ta'tilga ketishadi. Ko'zlarida quvonch. Mening esa ular yurak-bag'rimni yulib ketishlarini o'yab ko'zimga yosh qalqiydi. Shu payt sinfxona eshigi ochilib o'ttiz nafar o'quvchilarim sinfga yopirilib kirishdi. Shovqin-suron, chug'ur-chug'ur qilishib, "ustoz, ustoz" deb bag'rimga ottilishdi. O'quvchilarim birin-ketin achomlashib bo'lishgach, qo'ng'iroq chalindi. Dars boshlandi. Bu so'nggi darslardan biri, so'nggi daqiqalar...

Darsni tushuntiryapman, xayolim parishon, fikrlarim tarqoq. Ko'zlarim bilan bolajonlarimning kulib turgan ko'zlariga qarayman. O'ylayman: "Axir ular maktabni butunlay tark etishgani yo'q-ku, bor-yo'g'i boshlang'ich ta'limni tugatishyapti, xolos. Nari borsa ikki sinf narida o'qishni davom ettirishadi. Ularni har kuni ko'rish imkonim bor". Shu payt yana qo'ng'iroq jiringladi. Bu gal quloqlarim tagida jiringladi, go'yo.

Sevara ERGASHEVA,
Uchquduq tumanidagi
20-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Taassurot

Ruminiyaga qilgan sayohatim menga Yevropaning notanish, biroq sehrli bir diyori kashf etish imkonini berdi. Bu mamlakatni o'z ko'zim bilan ko'rish, qadimiy tarixi, go'zal tabiati va mehmondo'st odamlari bilan yaqindan tanishish istagi meni bu yerga yetakladi.

Ruminiya va yangi bilimlar



Sayohatim Buxarestdan boshlandi. Poytaxt shaharning qadimiy arxitekturasi va zamonaviy hayoti uyg'unlashgan. Parlament binosi – dunyodagi eng katta ma'muriy inshootlardan biri. U nafaqat hajmi bilan, balki o'tmish siyosati va xalq ruhini o'zida mujassamlashtirgani bilan hayratlantirdi. Eski shahar markazidagi toshli ko'chalarda sayr qilish, ko'hna kafe va do'konlarni kezish orqali Ruminiyaning yuragini his etdim. Har bir burilishda tarix nafasi bor edi.

Keyingi yo'lim Transilvaniyaga olib bordi – afsonalarga burkangan, tabiat bilan tarix tutashgan shahar. Brasov shahri tog'lar bag'rida joylashgan, o'zining sokin muhit va toza havosi bilan meni o'ziga rom etdi. Bran qal'asini ziyorat qilganimda, Drakula haqidagi afsonalar ko'z o'ngimda jonlandi. Garchi bu qal'a haqiqiy Drakulaga to'g'ridan to'g'ri aloqador bo'lmasa-da, uning devorlaridagi sokinlik, toshlar orasidan esayotgan sovuq shamol bu yerda sirli narsa borligidan darak berayotganday edi.

Timishoara – dunyodagi eng yaxshi saqlanib qolgan o'rta asr shaharlaridan biri – o'zining rang-barang uylar va tor ko'chalari bilan meni go'yo vaqt mashinasida o'tmishga olib ketdi. Bu yerda vaqt sekinroq o'tadigandek, odamlar esa go'yo hali ham XIV asrda yashayotgandek tuyuldi. Sayohatning so'nggi kunlarini Qora dengiz bo'yida o'tkazdim. Timishoara shahrida dengiz havosi, quyosh va sukunat menga ichki xotirjamlik berdi. Shu joyda sayohat davomida olgan taassurotlarimni xayolimda yana bir bor aylantirdim. Har bir joy o'ziga xos edi – birida tarix, boshqasida tabiiy go'zallik, yana boshqasida odamlarning soddaligi meni hayratda qoldirdi.

Ruminiya – bu nafaqat sayohat uchun qulay o'lka, balki kashfiyotlar mamlakati. Har bir ko'cha, har bir tepalik, har bir odam sizga qandaydir hikoya aytib beradi. Bu 15 kunlik safar davomida men nafaqat yangi diyorni ko'rdim, balki o'zimni ham yangidan kashf etdim. Va ishonchim komilki, bu yurtdan olib ketgan xotiralarim umrbo'yi menga hamroh bo'ladi. Istardimki, har bir Osiyoning quyosh nurlaridan bahramand bo'lib ulg'ayib kelayotgan o'zbek farzandi hayoti davomida bir marta bo'lsa ham yangi bilimlar va ko'nikmalarni izlash uchun sayohat qilib ko'rishi kerak.

Elgiza SOBIROVA,
ToshDO'TAU talabasi